

**BOSHLANG'ICH SINFLARDA GRAMMATIKA VA MORFOLOGIYA.
OT-SO'Z TURKUMI.**

Qo'qon Davlat Universteti

Boshlang'ich ta'lim fakulteti talabalari:

Abdulazizova O'g'iloy

Usubjonova Shohsanam

Ahmadjonova Soliyahon

94 587 54 18 94 991 06 21 91 693 41 46

abdulazizovaqorakoz@gmail.com

ANNOTATSIYA: *Ushbu maqolada o'zbek tilining grammatikasi, morfologiyasi, ot so'z turkumi, uning kategoriyalari, leksik-grammatik xususiyatlari, ma'no turlari haqida umumiy ma'lumotlarga ta'rif berib o'tilgan.*

KALIT SO'ZLAR: *so'z turkumi, leksik-grammatik, ot, kategoriya, ma'no, egalik, so'z, shakl, tilshunoslik, birikma.*

GRAMMAR AND MORPHOLOGY.

A NOUN IS GROUP OF WORDS.

ANNOTATION: *In this article, general information about the grammar, morphology, noun group, its categories, lexical-grammatical features, meaning types of the Uzbek language is described.*

KEY WORDS: *vocabulary, lexical-grammatical, noun, category, meaning, possession, word, form, linguistics, combination.*

Grammatika (qadimgi yunoncha: - grammatike, gramma so'zidan — harf, yozish) — tilshunoslikning tilning grammatik tuzilishini, ya'ni so'zlarning shaklga ega bo'lish qonuniyatlarini, shuningdek, so'z birikmalari va gaplarni tuzish qonuniyatlarini o'rganadigan bo'limi. Grammatika 2 qismdan —

morfologiya va sintaksisdan iborat. Morfologiyada soʻzning grammatik turkumlari va morfologik kategoriyalar, soʻz shakllari, sintaksisda esa soʻz shakllarining gap tarkibida oʻzaro birikish yoʻllari, ran va uning kategoriyalari, gapning tuzilish turlari bayon qilinadi. Demak, Grammatikada soʻz shakli, grammatik maʼno, grammatik shakl, grammatik kategoriya, ran va uning kategoriyalari haqidagi tushunchalar markaziy oʻrinni egallaydi. Tilda oʻzining doimiy ifodalovchisiga ega boʻlgan, soʻz shakli va gapga xos umumlashgan maʼno grammatik maʼno sanaladi.

Oʻzbekistonda Grammatikani oʻrganish tarixi Mahmud Koshgʻariyning "Devonu lugʻotit turk" asariga borib taqaladi. Bu jarayon oʻrta asrlardagi lugʻatshunoslik taraqqiyotida ham oʻz aksini topgan (Toli Imoniy Hiraviyning "Badoye ul-lugʻat" asari, (15-asr), "Abushqa" nomli chigʻatoycha-turkcha lugʻat (16-asr) va boshqalar).

Hozirgi oʻzbek tili Grammatikasi Yevropa Grammatikasi asosida yaratilgan. Bu jarayon 19-asrning 2-yarmidan boshlangan. Dastlab rus turkshunosi M. A. Terentyev "Turk, fors, qirgʻiz (qozoq) va oʻzbek tillarining grammatikasi" (1875) kitobini yozib, SanktPeterburgda nashr ettirgan. Bu kitob mahalliy tilni oʻrganmoqchi boʻlgan rusiyzabon kishilarga moʻljallangan edi. Oʻzbek tilining izchil ilmiy Grammatikasini yaratishni 20-asrning 20-yillarida Fitrat, Gʻozi Yunus, Shorasul Zunnun va boshqalar boshlab berdilar. Keyinchalik bu sohada A.Gʻulomov, Gʻ.Abdurahmonov, A.Hojiyev, Sh.Rahmatullayev, Sh.Shoabdurahmonov, S.Usmonov, B.Oʻrinboyev va boshqa tilshunos olimlar katta ishlarni amalga oshirdilar.¹

Oʻzbek tilida grammatik maʼno quyidagi vosita va usullar bilan ifodalanadi:

1. Affiksatsiya. Bunda grammatik maʼno soʻzning negiziga turli shakl yasovchi affikslarni qoʻshish bilan ifodalanadi: maktablar, maktabga, oddiyroq, ishlandi va h.k.

2. Yordamchi sozlardan foydalanish. Mustaqil ma'voli sozlar yordamchi so`zlar orqali grammatik ma'noga ega bo`lishi mumkin: Daraxt mevasi bilan ko`rkam, odam - mehnati bilan. (maqol)

3. Takrorlash. So`zlarni takrorlash ham grammatik ma'noni ifodalashga xizmat qiladi: dasta-dasta gul, xirmon-xirmon paxta kabi. Bunda dasta, xirmon so`zlarini takrorlash bilan ko`plik, mo`llik ma'nosi ifodalangan.

4. Suppletivizm. Bu – o`zaro bog`langan, ma'lum bir tizimni tashkil qilgan grammatik ma'nolarni ifodalash uchun alohida-alohida so`zdan foydalanish usuli. Masalan, o`zbek tilida bir grammatik tizimni hosil qiladigan I va II shaxs kishilik olmoshlarining birligi men va sen so`zlari orqali, ko`pligi biz va siz so`zlaori orqali ifodalanadi.

5. Urgu sozining grammatik ma'nosini ifoda qilish uchun xizmat qilishi mumkin: akademik (ot), - akademik (sifat), yangi (sifat) – yangi (ravish), terma (sifat) – terma fe'ning bo`lishsiz shakli.

6. So`z tartibi. So`zlarning gapda oldinma-keyin kelish ham ba'zan grammatik ma'no ifodalashga yordam beradi. *Masalan: 1. Ajoyib odamlar. 2. Odamlar ajoyib. Birinchi gapda ajoyib so`zi otdan oldin kelib sifatlovchi vazifasini, ikkinchi gapda ushbu so`z otdan keyin kelib kesim vazifasini bajargan.*

7. Ohang ham grammatik ma'no ifodalashda katta ahamiyatga ega. Bunda grammatik ma'no so`zlarning gap sifatida shakllanishi bilan bog`liq. *Masalan: Hamma keldi. (Darak gap) - Hamma keldi? (so`roq gap) - Hamma keldi! (undov gap).*

Grammatik shakl - grammatik vosita bildiruvchi, grammatik ma'no ifodalovchi til shakli. Masalan o`zbek tilida "yaxshi-yaxshi" deb "yaxshi" sifati takrorlansa, bu so`z ma'nosini kuchaytirish uchun xizmat qiladi. Xuddi shu grammatik vosita ba'zi tillarda, mas, malayya yoki indonez tilida ko`plikni bildiradi.

Muayyan bir tilda turli grammatik shakl bir ma'noda qo'llanishi ham mumkin: -yotir, -yapti, -moqda kabi o'zbek tilidagi grammatik shakllar fe'lning hozirgi zamon shaklidir. Aksincha, ayni bir Grammatik shakl birdan ortiq grammatik ma'noni bildiradi. Mas, "lar" shakli "ishlar" so'zida ham fe'l, ham sifatdosh, ham ko'plik hisoblanadi.²

Grammatik kategoriya grammatik shakllarning oddiy arifmetik yig'indisi emas, balki ma'lum bir turdagi shakllarining umumiy ma'no asosidagi barqaror munosabati tizmasidan iborat bo'lgan yangi bir butunlik. Bunda umumiylik va farq umumiy ma'no asosida bo'lishi kerak. Buni yorqin idrok etish uchun kelishik kategoriyasi va ravishdoshlarni grammatik kategoriya tushunchasiga munosabat nuqtai nazardan kuzatish yetarli.

Grammatik kategoriyaga R. Sayfullayeva, B. Mengliyev [2009] "Hozirgi o'zbek adabiy tili" nomli darsligida quyidagicha ta'rif berilgan. Bir umumiy grammatik ma'no ostida birtashuvchi, shu asosda bir-birini taqazo va bu umumiy ma'noning parchalanishi asosida inkor qiluvchi shakllar tizilish grammatik kategoriyasi deyiladi. Bu darslikda o'zbek tilidagi grammatik kategoriyalar soni 9 ta ekanligini aytib o'tilgan. Bular qo'yidagilar:

1. Nisbat kategoriyasi,
2. O'zgalovchi kategoriyasi:
3. Harakat tarzi kategoriyasi,
4. Bo'lishli bo'lishsizlik kategoriyasi,
5. Son kategoriyasi.
6. Daraja kategoriyasi.
7. Kelishik kategoriyasi,
8. Egalik kategoriyasi.
9. Kesimlik kategoriyasi,

So'z turkumlari — tildagi so'zlarning ularda umumiy kategorial ma'noning (maye. otlarda predmetlik, fe'llarda harakatholat), Grammatik

2. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Buxoro, 2001

kategoriyalar yagona tizimining, o'ziga xos so'z o'zgarish, shakl va so'z yasaliş tiplarining, sintaktik vazifalar umumiyliğining mavjudliğiga qarab ajratiladigan guruxlari (Ba'zi adabiyotlarda "so'zlarning leksikgrammatik kategoriyalari" deb ham ataladi). Demak, so'zlarni guruhlarga, turkumlarga ajratishda asosan ularning sintaktik, morfologik va ma'noviy (semantik) xususiyatlarining o'xshashligi hisobga olinadi.

O'zbek tilida 6 ta mustaqil (ot, sifat, son, olmosh, ravish va fe'l), 3 ta yordamchi (ko'makchi, bog'lovchi, yuklama) va 3 ta alohida (undovlar, taqlid so'zlar, modal so'zlar) mavjud.

Ot — mustaqil so'z turkumlaridan biri. U boshqa turkumlardan bir necha belgi — xususiyatlari bilan ajralib turadi. Ular quyidagilardan iborat:

A) ot yasaliş xususiyatiga ega: ishchi, suhbatdosh, paxtakor, bog'bon, oshpaz, Mirzacho'l;

B) son-miqdorni bildirish xususiyatiga ega: bola — bolalar, daftar—daftarlar;

C) egalik ko'rsatkichiga ega: otam, otang, otasi — otamiz, otangiz, otalari;

D) kelishik shakllari bilan o'zgaradi; maktab, maktabning, maktabni, maktabga, maktabda, maktabdan;

E) gapda barcha gap bo'laklari vazifasida keladi.

Aniq, predmetlarni yoki predmet sifatida tasavvur qilinadigan tushunchalarni ifodalaydigan otlar ma'nosiga ko'ra, atoqli va turdosh otlarga bo'li-nadi. Bir xildagi predmet yoki hodisaning birini ajratib ko'rsatuvchi otlar atoqli otlar sanaladi: Rustam, Olimjon, Jomboy, Mars, Venera, Boychibor kabilar. Bir jinsdagi predmetlarning umumiy nomi turdosh otlardir: gul, daraxt, qalam, daftar kabi.

Ot so'z turkumi 3 xil grammatik kategoriyaga ega:

1. Son kategoriyasi.
2. Egalik kategoriyasi.
3. Kelishik kategoriyasi.

Otning funksional shakllari mavjud bo'lib, ular ma'lum bir qo'shimcha grammatik ma'no ifodalash, otlarning kategorial shakllariga xos bo'lmagan biror sintaktik vazifasiga moslashish uchun xizmat qiladi. Otga xos funksional shaklning yasalishga ko'ra 3 tipi mavjud: 1) sintetik shakl; 2) analitik shakl; 3) juft va takror shakl.³

Otlar ma'no jihatdan quyidagi guruhlariga bo'linadi:

1. Atoqli otlar. Bir turdagi narsa yoki hodisalarning birini ajratib ko'rsatish uchun xizmat qiladigan otlar atoqli otlar deyiladi. Atoqli otlar shaxs ismlari, havonlarning atoqli nomlari, tashkilot va geografik makon nomlari, koinot jismlari nomlari, suv havzalari, tashkilot nomlari kabi guruhlar doirasida uchraydi: Alisher, Ulug'bek,

Zarafshon, Toshkent, Samarqand, Mars kabi. Bunday atoqli otlar o'zaro tub va yasamaligi hamda tuzilishiga ko'ra farqlanishi mumkin. Masalan, Lola, Go'zal, Amir, Gavhar Orol kabi otlar sodda tub, Ilonli, Do'stlik, Paxtakor kabi atoqli otlar sodda yasama, Ulug'bek, Alisher, Nurato, Nurobod, Qo'shrabot, Uchquduq kabi atoqli otlar qo'shma otlardir. Atoqli otlarning asosiy qismini turdosh otlar tashkil qiladi. Biroq ular boshqa so'z turkumlari asosida ham yuzaga keladi. Masalan: Asal, Quvonch, Anor kabilar turdosh otdan, O'lmas, Sotiboldi, Turdi, Tursun kabilar esa fe'ldan, Aziz, Botir, Shirin, Vali kabilar sifatdan, To'qsonboy, Oltibek kabilar esa sondan, Bultur, Avvalboy kabilar esa ravishdan hosil bo'lgan atoqli otlardir.

Turli turkumga mansub bo'lgan so'zlarning atoqli ot sifatida qo'llanishi natijasida ular o'zining hususiy nominativ mohiyatidan chekingan holda, umumiy semantik ma'no tashuvchi lug'aviy birlikka aylanib qoladi. Masalan, Uchquduq mazkur joydagi uchta quduqni emas, balki umuman shahar tushunchasini anglatuvchi onomastik birlikdir.

2. Turdosh otlar bir jinsdagi otlarning umumiy nomini bildiruvchi otlardir. Masalan, inson, daryo, shahar, kitob, daftar. Turdosh otlar quyidagi ma'no guruhlariga mansubligi bilan o'zaro farqlanadi:

3.H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2005

3. Aniq otlar bevosita narsa-buyum va shaxs, jon-zot anglatadigan otlardir. Aniq otlar bevosita sanash va ko‘rish mumkin bo‘lgan otlar hisoblanadi. Masalan: kitob, talaba, daraxt, qush.

4. Mavhum otlar his qilish, sezish mumkin bo‘lgan otlardir. Ular ham ko‘plik affikslari bilan qo‘llanmaydigan otlar bo‘lib, ularga ko‘plik qo‘shimchasi qo‘shilganda turlicha ma‘no bo‘yog‘i yuzaga keladi. Masalan: sevgi, sezgi, qayg‘u, alam, qadr, oriyat.

5. Jamlovchi va yakka otlar. Bir turdagi narsaning o‘zini ifodalaydigan otlar yakka otlar hisoblanadi: kitob, gul, daraxt kabi. Birlik shaklida bo‘lib, bir xil turdagi narsaning to‘dasi, jamini ifodalaydigan otlar jamlovchi otlardir: xalq, armiya, ko‘pchilik, poda, jamoa, o‘rmon kabilar.

6. Sanaladigan otlar, sanalmaydigan otlar. Sanaladigan otlar, asosan, aniq otlardan tashkil topadi: daraxt, kitob, qalam. Sanalmaydigan otlar modda otlari, og‘irlik, suyug‘lik o‘lchamiga xos otlar va atoqli otlardan tashkil topadi: tuproq, qum, havo, shakar, tuz, yog‘, guruch, kabilar.

7. Bundan tashqari, tabiatan yakka bo‘ladigan va juft holda uchraydigan otlar ham mavjud bo‘lib, ular ham otning alohida ma‘no turini tashkil qiladi. Masalan: yurak, quyosh, oy, ko‘z, qosh, oyoq kabilar shular jumlasidandir.

Otlarning birlik va ko‘plik shakllari va shu shakllarni ifodolovchi vositalar son kategoriyasini tashkil etadi.

Birlikdagi otlar bir jinsdagi narsalarning bittasini anglatadi va ular grammatik son ko‘rsatgichga ega bo‘lmaydi. Masalan: kitob, olma, qalam kabi. Birlik sondagi otlar egalik (kitobim, kitobimiz), kelishik (kitobdan, kitobning) kategoriyasiga xos qo‘shimchalar bilan qo‘llanganda ham o‘z grammatik mohiyatini yo‘qotmaydi, ya‘ni birlik hisoblanaveradi.

Otlarning ko‘plik shakli maxsus grammatik vosita – *lar* orqali ifodalanadi va bir turdagi narsaning noaniq miqdorini bildiradi. Grammatik ko‘plik hosil qiluvchi –lar otlardagi lug‘aviy shakl yasovchi affiks hisoblanadi. Grammatik son ma‘nosini ifodalashning bu usuli **morfologik usul** deb yuritiladi. Masalan: kitob – kitoblar, qalam – qalamlar. Otlarning birlik va ko‘plik shaklda

ishlatilishi, asosan, sanaladigan va aniq turdosh otlarga xosdir. Biroq juft turdosh otlarning son kategoriyasi bilan qo‘llanishida o‘ziga xosliklar mavjud. Masalan, kuch-qudrat, savlat-salobat, mehr-muhabbat, vaqt-soat kabi otlar birlik shaklda ishlatiladigan otlardir. Juft turdosh otlarning yigit-qiz, qiz-juvon, o‘g‘il-qiz kabi turlari ko‘plikda qo‘llaniladigan otlardir. Ko‘rpa-to‘shak, qandqurs, fikr-mulohaza, ota-ona, oshiq-ma’shuq, oshna-og‘ayni kabi otlar esa grammatik sonning har ikki shaklida ishlatilishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiy tili. T., 2005
2. M.Mirzayev, C.Usmonov, I.Rasulov. O'zbek tili. T.,1978
3. O'zbek tili leksikologiyasi. T., 1981.
4. B.Mengliyev, O'. Xoliyorov. O'zbek tilidan universal qo'llanma. T.,2007
5. Qilichev E. Hozirgi o'zbek adabiy tili. Buxoro, 2001
6. Sayfullahyeva R.R. Mengliyev B.R., Boqiyeva G.H. va boshqa. Hozirgi o'zbek adabiy tili, T., fan va texnologiya, 2010.
- 7.Yusupova.S.A - “O`zbek tili filologiyasida son kategoriyasi” T-2001
- 8.Sotvoldiyeva.H.M. – “Ot so`z turkumi” –“Teaching languages” journal, 2020-p-159-163

INERNET MANBAALARI:

- 1.www.wikipedia.uz
- 2.www.arxiv.uz
- 3.www.abt.uz